

HID SEZGISI ORQALI NAMOYON BO‘LUVCHI TA’M SIFATLARIDA MAZMUNY SINKRETIZM

Teshaboyeva Gulnoza Alimjanovna

Andijon davlat universiteti katta o‘qituvchisi

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada, tilshunoslikda hid sezgisining ta’m sezgisi bilan bog‘liq sifardagi semantik sinkretizmni ifodalanishini yoritib berishini tadqiq qildik.*

***Kalit so‘zlar.** Tilshunoslik, leksik – semantik maydon, sezgi, ta’m, hid, idrok.*

***Аннотация.** В этой статье мы исследовали, как обоняние в лингвистике проливает свет на представление качественного семантического синкретизма, связанного с чувством вкуса.*

***Ключевые слова.** Языкознание, лексика – смысловое поле, смысл, вкус, обоняние, восприятие.*

***Annotation.** In this article, we have explored how the sense of smell in linguistics sheds light on the representation of qualitative semantic syncretism related to the sense of taste.*

***Keywords.** Linguistics, lexicon - semantic field, sense, taste, smell, perception.*

Tilshunoslikka bag‘ishlangan lug‘atlarning muhim jihatlaridan biri leksemaning leksik – semantik maydonni o‘z ichiga olishi va leksemaning tavsifini berish, uning ma’no xususiyatlarini ochib berish hisoblanadi. Bu leksik semantik maydon olamning lisoniy manzarasini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Olamning lisoniy tasviri idrok lug‘atida o‘z aksini topadi. Manbalardan ma’lumki, idrok lug‘atining tuzilishi inson ta’na a’zolarining nomlari bilan ifodalanishi bilan bog‘liq belgilanadi. Ya’ni, idrok – jismoniy to‘liq gavdalangan, nuqsonsiz insonning ta’na a’zolari asosida yuzaga keladi. Inson ko‘rish, his etish, eshitish qobiliyatlarini o‘zida mujassam etadi. Ana shu qobiliyatlari bilan olamni in’kos etadi.

Taniqli tilshunos N.Mahmudovning ta’kidlashicha: “Odamzod raydo bo‘libdiki, o‘zining, o‘zi kabilarning va tashqi dunyoning sinoatlarini o‘rganish bilan mashg‘ul. Azaldan murakkab va muntazam bu bilish jarayonida sezgi, idrok va aql degan quvvatlar harakatda bo‘ladi, bu quvvatlarning joni esa tildir. Dunyoni bilishday bu intihosiz jarayonlarda tolmas va tirik qurol bo‘limish til tinimsiz qayralib, mukammallashib, boyib boradi.”¹

Ma’lumki, ta’m va hidning o‘zaro bog‘lanishi ovqat ta’mi asosiga qurilgan munosabatlardir. Albatta, hid bilan ta’ming o‘zaro jips munosabati metaforik

¹ Махмудов Н.Тил ва илмий идрок.//Тил тилсими тадқиқи.-Тошкент:Мумтос со‘з, -Б.117.

sinestetik ma'no ifodasida ham ko'rinadi. Inson olamni bilish jarayonida sezgilariga asoslanadi. Sezgilar orqali butun borliqqa bo'lgan munosabatlarini ko'rsata oladi. Ta'm, hid, ko'ruv singari sezgi organlari olamni idrok etishda sezgi organlari orasida faoldir. Ma'lum bo'ladiki, oziq – ovqat mahsulotlarining mazasini anglash ta'm va hid sezgilariga bog'lanadi. Bu o'rinda M.Burxanova shunday yozadi: “Odamlar borliqni sezgi organlari orqali qabul qilganlar, bu jarayonda ularning hid, is bilish qobiliyatlari muhim o'rin tutgan. Ular atrofdagi yoqimli hidlardan lazzatlanganlar, yoqimsiz hidlar esa aksincha, salbiy taassurotlarni uyg'otgan. Ular oziq – ovqat, meva-cheva, narsa-buyum bilan bog'liq xushbo'y hidlarni farqlaganlar. Hid bilan bog'liq tasavvurlarini kengaytirganlar. Taomlarga xos mazani hid sezgisi orqali ham ilg'ay olganlar. Taomlar iste'molida ta'm sezgisiga nisbatan hid sezgisi ustuvorlik qilgan”.¹ M.Burxanovanning fikriga o'xshash qarash tatar tilshunosi A.Mansurovning ilmiy tadqiqotida ham kuzatiladi. Uningcha ham “... hid sezish organlari ta'm bilish organlariga nisbatan sezgirroq ekanligi haqida fikrlar bildiriladi. Oziq-ovqat mahsulotlari hidlari borasida ham hid sezgilariga xos parametrlar yetakchilik qiladi”², deb ta'kidlaydi. Agar olfaktor assotsiatsiyalar turli millat vakillari o'rtasida bir-biriga to'g'ri kelsa, biz ushbu millat vakillarining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, hissiyotlardagi o'xshashlik haqidagi talqinni gapirishimiz mumkin.³ To'g'ri, bunday vaziyatda o'zbek millatida ham pishirilgan taomlar, parfyumeriya mahsulotlarida to'liq ifodasini topadi. Bizningcha, masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Gap shundaki, shunday oziq-ovqat mahsulotlari borki, ular ko'rinish jihatidan hid taratmaydi. Masalan, poliz ekinlari va sabzavotlar: pomidor, bodiring, sabzi, kartoshka, piyoz, karam, tarvuz, sholg'om, oshqovoq, turup va boshqa. Fikrimizcha, yuqoridagi aytilgan fikrlar hid bilan bog'liq masala ta'mdan ustuvor bo'lishiga monelik qiladi. Anglashiladiki, hid va ta'mni bir-biridan ustuvor qo'yish emas, teng munosabat asosida tahlil etilsa masalaga to'g'ri yondashilgan bo'ladi. Ko'rinadiki, hid sezgisi masalasida e'tiborli bo'lishni taqozo etadi. Immanuyel Kant ta'm va hidga quyidagicha ta'rif beradi: “Ta'm va hid obyektiv hislardan ko'ra ko'proq subyektiv hislardir, birinchisi tanglayning tashqi narsa bilan aloqasiga bog'liq holda tilni tanglayga tegib turishi bilan hosil bo'ladi, ikkinchisi bug'langan havoning tashqaridan kirgan begona bug'larning aralashmasidan (paydo bo'ladi) va bu bug'larni chiqaruvchi tananing o'zi organidan uzoq bo'lmagan masofada joylashgan bo'lishi mumkin. Ikki sezgi ham bir-biriga

¹ Бурханова М.Ольфактор лингвистика.-Фарғона., 2022.51-бет.

² Мансурова А.Х . Репрезентация ольфакторного простраснтво в английском и татарском языках. Дисс.канд.филол.наук.-Казань.2016.-С.12.

³ Шилина А.В.От аромат к слову: Лексика со значением «Принятный запах « в рамках концепции языковой картина мира (на материале английского, французкого и итальянского языков).Вестник СПбГУ. Сер.9 . 2012. Вып.2.С.238.

yaqin bo‘lib, hid sezgisi zaif insonda doimo o‘tmas ta‘mga ega bo‘ladi”.¹ Psixologik tadqiqotlarda ham ta‘m va hid bilash usullari bir – biri bilan chambarchas bog‘liqligi ta‘kidlanadi. Tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham ta‘m va hid bir-biri bilan semantik o‘zaro zich bog‘langan hisoblanadi. Masalan, sifat leksemasi narsaning ta‘mini ham, hidini ham aniqlay olish xususiyatiga ega: achchiq ta‘m, achchiq hid, shirin ta‘m, shirin hid, nordon ta‘m, nordon hid, xushbo‘y ta‘m, xushbo‘y hid singari. Keltirilgan misollarga e‘tibor berilsa, ta‘m sezgisi dominant hisoblanadi. Narsa-buyumning hidini ta‘m bilan bog‘laydigan xarakterli xususiyatlari mavjud. Anglashiladiki, bu ikki sezgini birini ikkinchisidan yuqori bo‘lmaydi. Hid sezgisining ta‘m sezgisi bilan bog‘liq sifatdagi semantik sinkretizmni ifodalanishini yoritib berilishiga to‘xtalamiz.

K.Klassen shunday yozadi: “... hidlar insonning ijtimoiy va manaviy hayoti bilan bog‘liq hodisa sifatida olamni anglashda o‘zaro tenglik paradigmasini tashkil etadi”.² Yuqorida aytilgan fikrlarni tahlil orqali mustahkamlaymiz:

Yo‘lchi quruq namatga yotib, ustiga ko‘rpacha yopdi. Ko‘rpachadan zax hidi bilan ot shipitirining qo‘lansasi dimoqqa urdi (Oybek. Qutlug‘ qon). Qambar qattiq kulib, Yo‘lchining yoniga yonboshladi. Og‘zidan musallas hidi gurkirar edi (Oybek. Qutlug‘ qon). Yo‘lchi qaytib, zax uyga – xizmatkor xonaga kirdi. Uyning devorlaridan nam, mog‘or hidi esadi (Oybek. Qutlug‘ qon). G‘ulomjon, dimog‘iga qo‘qisdan sassiq hid kirgandek, yuzini burushtirdi (M.Ismoilijon. Farg‘ona tong otguncha). Ma‘lumki, zax, qo‘llansa, mog‘or, sassiq hidlarida badbo‘ylik belgisi mavjud. Demak, zax hidi va qo‘lansasi dimoqqa urdi, mog‘or hidi, sassiq hid birikmali vaziyatida badbo‘y hidga nisbatan qo‘llanilmoqda. Negaki, zax, qo‘llansa, mog‘or, sassiq semalarida semantik ifoda turlicha bo‘lsa ham jumla tarkibida sinkretiklikni yuzaga chiqaradi. Chunki zax va qo‘llansa, mog‘or, sassiq semalarida badbo‘ylik konnotatsiyasi mavjud bo‘lib jumla ma‘nosiga emotsional-ekspressivlik yuklaydi. Ma‘lum bo‘ladiki, zax, qo‘llansa, mog‘or sassiq semalariga nisbatan salbiy bahoda badbo‘ylik semasida konnotativlik kuchli ifodalanadi. Demak, badbo‘ylik assotsiativ qatorida zax, qo‘llansa, mog‘or, sassiq semalari badbo‘y semasiga nisbatan kuchsiz salbiy ma‘noga ega hisoblanadi. Gap shundaki, inson xotira zahirasida salbiy ma‘no ifoda etuvchi, kuchli emotsianellik ifodalovchi badbo‘y semasi aks etib turadi. Jumladan, O‘ZTIL da badbo‘y leksemasiga quyidagicha ta‘rif berilgan: BADBO‘Y [bad+f-hid, is] 1. Yoqimsiz hid tarqatuvchi; yoqimsiz hidga ega; qo‘llansa, sassiq.³ Ko‘rinadiki, inson idrok zahirasida badbo‘ylik semasi semantik implitsit (yashirin) voqelanadi.

¹ Кант И. Антропология с прагматической точки зрения. СПб.: Наука, 1999. С.184-186. (472 с.)

² Классен К. Значение и власть запаха // Ароматы и запахи в культуре: в 2-х т. / К. Кассен, Д. Хоувз, Э. Синнотт / сост. О.Б. Вайнштейн. М.: Новое литературное обозрение, 2003. Т.1. С.47-48.—с. 43-52.

³ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Беш жилдлик. 1-жилд. - Тошкент. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 2006. 157-бет.